

## ABDULLA AVLONIY ASARLARINING TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI VA O'RNI

**Axmadjonova Jasmina Jamshid qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich talabasi

E-mail: [axmadjonovajasmina070@gmail.com](mailto:axmadjonovajasmina070@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buyuk va ma'rifatpar alloma, jadid adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy asarlarining dolzarbligi va bugungi kun ta'lismizagi ahamiyati haqida so'z boradi. Yosh avlodga ta'lism tarbiya berishda Abdulla Avloniy yaratgan darsliklari va asarlari asosida darslik va qo'llanmalar yozish va ularni tatbiq qilish to'g'risida aytib o'tilgan. Ma'rifatparvar adibning bugungi kungacha o'z qiymati va dolzarbligini yo'qotmagan bir qancha ilmiy va badiy asarlari tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Avloniy, jadidchilik, ma'rifat, maktab, ta'lism, tarbiya, maktab, muallim, zamonaviy ta'lism, madrasa, jamiyat, "Turkiy guliston yoxud axloq", tarix, ziyoli.

### ABSTRACT

This article talks about the relevance of the works of Abdulla Avloni, a great and enlightened scholar, one of the mature representatives of modern literature, and their importance in today's education system. It was mentioned about writing textbooks and manuals based on the textbooks and works created by Abdulla Avloni and their implementation in educating the young generation. An analysis of several scientific and artistic works of the enlightened writer, which have not lost their value and relevance to this day, is presented.

**Keywords:** Abdulla Avloni, modernism, enlightenment, school, education, training, school, teacher, modern education, madrasa, society, "Turkish culture or ethics", history, intellectual.

XIX-asr oxiri va XX-asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy o'qish va o'qitish usuliga yangilik kiritib, yangi maktablar tashkil etgan. U o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'limiyy-tarbiyaviy ishlarni bajarib, o'zbek millati tarixida o'chmas iz qoldirgan. O'zbek pedagogikasining "otasi" va yurtimizda birinchilardan

bo‘lib professor unvoniga sazovor bo‘lgan. Abdulla Avloniy merosini o‘rganish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Bu haqida Davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 8-oktabr kuni “Qatag‘on qurbanlarining merosini yanada chuqr o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoyish imzolandi. Farmoyishda keltirilgan quyidagi so‘zları o‘rinlidir: “Dunyoda global xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o‘zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag‘on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot namoyandalarining, oddiy kasb egasi bo‘lgan minglab yurtdosh larimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodimizni Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda”.

Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari bugungi kunda o‘zbek milliy maktabini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Avloniy ijodiy merosini chuqr o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Avloniy “axloq ulamosi”ning qarashlari asosida insonlarning xulqlarini yaxshi va yomon xulqlarga ajratadi. “Yaxshi xulqlar” deb, u 31 fazilat, “Yomon xulqlar”da 20 illatga ta’rif beradi. O‘z mulohazalarini dalillash uchun Qur’on oyatlari va hadislardan, shuningdek, Arastu, Suqrot, Ibn Sino, Sa’diy, Mirzo Bedil singari mashhur mutafakkirlarning fikrlarini keltiradi. Har bir axloqiy kategoriya o‘z munosabatini bildirgach, o‘sha fikrning mazmunini ifodalovchi bayt yo biror maqol-hikmat ilova qilgan.

Insonlarning xulqlarini yaxshi va yomon xulqlarga ajratishda, bunga ularning nafs tarbiyasini asos qilib oladi. U yaxshi xulqlarga matonat, nazokat, shijoat, intizom, vijdon, vatanni suymak kabi fazilatlarni kiritadi, g‘azab, shahvat, jaholat, safohat kabi illatlarni yomon xulqning belgilari deb biladi.

Abdulla Avloniy asarlarining deyarli har bir qismi, har bir satri ta’limga, bilm olishga va tarbiyaga yo‘naltirilgan. Shu bois ham bu asarlar o‘z davrida ham, bugungi kunda ham qiymatini va ahamiyatini yo‘qotmay kelyabdi.

Ta’lim va tarbiya har doim jamiyat hayotida eng asosiy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Abdulla Avloniy nafaqat nasriy asarlarida balki lirik ijodida ham ta’lim va tarbiyaga juda kata e’tibor qaratgan va sh’erlarining bosh mavzusi sifatida ham shu g‘oyalarni ilgari surgan. Ma’rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy she’riyatida markaziy o‘rinni egallaydi. Shoир ilm-fanning fazilatlarini zavq bilan kuylaydi. “Maktab”, “maorif”, “ilm”, “fan” kabi tushunchalar shoир she’rlarida ezgulikning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko‘tariladi, “jaholat” va “nodonlik” esa zulmat va yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Abdulla Avloniy qarashlariga ko‘ra, axloq tarbiyasi xususiy ish emas. Bu tarbiya – ijtimoiy jarayon. Har bir insonning tarbiyasiga

butun jamiyat mas’ul bo‘lishi lozim. Xalqlar, millatlarning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi ko‘p jihatdan o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Abdulla Avloniyning ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarida yaxshilik muhim o‘rin tutadi. Adib yaxshilikni eng ulug‘ fazilat hisoblaydi, insonlarni bir-birlariga yaxshilik qilishga da’vat etadi. Bu borada o‘zi ham ibrat bo‘ladi. Xususan, alloma aholining bilim-ma’rifatini oshirish maqsadida o‘z boyligini yangi maktablar, teatr truppalari ochishga beminnat sarflaydi, gazetalar chop ettiradi. O‘z xulosalarni shunday ifodalaydi:

Yaxshilik qilsang, bo‘lur joning omon,  
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.  
Yaxshi so‘z birlan ilon indan chiqar,  
So‘z yomon bo‘lsa, pichoq qindan chiqar.

Abdulla Avloniy ma’naviy-axloqiy ta’limotida saxiylik, rahm-shafqat, xushfe’llik, xushmuomalalikni targ‘ib etish ham yuqori o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytadiga bo‘lsak Abdulla Avloniy asarlari ta’lim va tarbiya bilan chambarchas bog‘iqdir. Chuki, tarbiya, ta’lim, muktab, ilm kabi tushunchalarning ilgari surilishi va xalq orasida keng tarqalishining ham eng asosiy sabchilaridab biri bu Abdulla Avloniy va uning tom ma’noda ta’limga yo‘naltirigan asarlaridir.

Abdulla Avloniy kishining ilm olishini eng oliy fazilat hisoblaydi. Uning aytishicha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, ilm xalq farovonligi yo‘lida qo‘llanilmasa, u o‘likdir. Shuning uchun ham, adib xalqqa ko‘proq nafi tegadigan ilm-hunar bilan shug‘ullanishni taklif etadi. Abdulla Avloniy atoqli pedagog, murabbiy sifatida butun hayotini ma’rifat rivojiga baxsh etdi. U o‘z ilmiy asarlari, darsliklarida Vatan, vatanparvarlik, ilm-hunar, axloq-odob, ma’rifat, inson kamoloti, jamiyat rivoji haqida fikrlarni bayon qildi. Mutafakkir alloma kishilarni yaxshilikka undash, dunyodagi barcha insonlarga nisbatan ezgulik istagi bilan yashashni chinakam olivjanoblik hisobladi. Uning barcha pedagogik fikrlari – ta’limoti milliy pedagogika tarixi rivojiga muhim hissa bo‘lib qo’shildi. Adib tomonidan ta’lim-tarbiya, odob-axloq borasida ilgari surilgan ulug‘vor g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlagan holda zamonaviy o‘zbek pedagogikasi taraqqiyoti uchun munosib xizmat qilib kelmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Umumiy pedagogika. R.A. Mavlonov, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarov, M.K.SHirinov, S.Hafizov. „Fanva texnologiya“ nashriyoti. Toshkent 2018
2. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjayev. „ Sanoat-standart“ nashriyoti. Toshkent, 2017

3. Turkiy guliston yoxud axloq. Abdulla Avloniy. „O‘qituvchi “nashriyoti. Toshkent, 1992
4. To‘xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. Ch.Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2006, 63-66- betlar.
5. Tolipov O‘.Q, Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: “Fan”, 2006. -B.262.
6. Qosimov B. (2002). Milliy uyg‘onish. T.: “Ma’naviyat”, – B. 400.
7. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va boshqalar. (2004). Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T.: “Ma’naviyat”, – B. 464.
8. Hamroyev Sh.E. (2021). Boshlang‘ich sinflarda jadidlar merosidan foydalanish. Monografiya. Qarshi: “Fan va ta’lim”, – B. 216.